

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
3-SONLI ICHKI KASALLIKLAR KAFEDRASI**

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
O'quv ishlar bo'yicha prorektor,  
professor, Boymuradov Sh.A.  
\_\_\_\_\_ 2022 y.



**KLINIK KARDIOLOGIYA MODULINING ISHCHI O'QUV  
DASTURI**

**2-KURS UCHUN**

**Ta'lim sohasi:** 910000 - Sog'liqni saqlash

**Mutaxassislik:** 70910105 - Kardiologiya

Toshkent – 2022

Modulning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi 2022 yil " " -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "**Yurak-qon tomir tizimi funksional anatomiyasi va tashxislash**" modul dasturi asosida tayyorlangan.

### **Tuzuvchilar:**


- Raximova M.E. - Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, t.f.n.
- Turaqulov R.I. Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrasida katta o'qituvchisi, t.f.d.

### **Taqrizchilar:**

- Nurillaeva N.M. - Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-son ichki kasalliklar kafedrasida mudiri, dotsent, t.f.d.
- Xamidullaeva G.A. - Respublika kardiologiya markazi katta ilmiy xodimi, t.f.d.

Modulning ishchi o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasi Kengashida muxokama etilgan va tasdiqlangan (2022 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi "\_\_\_" -sonli bayonnoma).


3-son ichki kasalliklar kafedrasida mudiri, t.f.d., professor

  
Ahmedov H.S.

Magistratura bo'limi boshlig'i

  
Imamov A.A.

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i

  
Azizova F.X.

## **1. O‘quv fani o‘qitilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar.**

**“Klinik kardiologiya”** fani magistr talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yidagi talablar qo‘yiladi.

### **Talaba:**

- sog‘liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas‘uliyati;
- O‘zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (kontsepsiya, tamoyillar, asosiy yo‘nalishlari);
- sog‘liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar;
- sog‘liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari;
- yurak qon –tomir tizimi kasalliklarining epidemiologik ma‘lumotlari, etiologik va xavf omillarining ta‘siri, patogenezining zamonaviy nazariyalari, tasniflari, tashxislashning, shu jumladan erta tashxislashning zamonaviy usullari, turli bosqichlarda davolash me‘zonlari, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash organlarining kardiologik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlari;
- klinik kardiologiya fanining ilmiy asoslari;
- aterosklerozni o‘rganish bo‘yicha zamonaviy ko‘p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
- arterial gipertenziyani o‘rganish bo‘yicha zamonaviy ko‘p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
- miokard kasalliklari va yurak yetishmovchiligini o‘rganish bo‘yicha zamonaviy ko‘p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
- aritmologiya sohasida zamonaviy tekshirishlar natijalari;
- aorta kasalliklarini o‘rganish bo‘yicha zamonaviy ko‘p markazli tekshirishlar va ularning natijalari;
- neyrotsirkulyator distoniyani o‘rganish bo‘yicha zamonaviy tekshirishlar natijalari;
- orttirilgan va tug‘ma yurak nuqsonlari epidemiologiyasi, yurak nuqsoni bo‘lgan bemorlarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullari;
- perikard kasalliklarini o‘rganishning zamonaviy holati;
- o‘pka gipertenzivasi va o‘pka-yuragi rivojlanish muammosini o‘rganish bo‘yicha zamonaviy qarashlar;
- infeksiyon endokarditni o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshirishlar va ularning natijalari;
- ichki a‘zo kasalliklarida yurak qon-tomir tizimi holatini o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshirishlar;

– yurak qon –tomir tizimi kasalliklarni davolash jarayonida kompyuter texnologiyalarining o‘rni, asosiy elementlari, internet vositalari, axborotlar qidirish, ma’lumotlarni saqlash;

– operatsion tizimlar, elektron pochta, konferentsiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish;

– tibbiyot hujjatlarini to‘g‘ri olib borish to‘g‘risida **tasavvurga ega bo‘lishi**;

– vrachlik amaliyotida «jamoat» bo‘lib ishlash tamoyillarini;

– ritm va o‘tkazuvchanlik buzilishini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash, rejali davolash va profilaktika standartlarini;

– zamonaviy antiaritmik vositalarni;

– essentsial gipertenziya epidemiologiyasi, etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, davolash va tashxislash standartlarini, asoratlarni hamda profilaktikasini;

– simptomatik arterial gipertenziya rivojlanish mexanizmi, klinikasi, taqqoslama tashxislash va davolash tamoyillarini hamda profilaktikasini;

– lipid almashinuvi buzilishi etiologiyasi, patogenezi, zamonaviy tasnifi, xavf omillari, tashxislash, profilaktika va davolashning zamonaviy standartlarini;

– yurak ishemik kasalligining etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, xavf omillari, klinikasi, tashxislash va davolash standartlari, asoratlari va profilaktikasini;

– invaziv davolash usullarini;

– to‘satdan koronar o‘limni tashxislash va o‘pka-yurak reanimatsiyasi usullarini;

– o‘mrov osti kateterini qo‘yishni;

– vaqtinchalik kardiostimulyator o‘rnatishni;

– defibrillyatsiya o‘tkazishni;

– plevral bo‘shlig‘ini punktsiya qilishni;

– koma holatidan chiqarishni;

– miokard kasalliklari etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlari, profilaktikasini;

– yurak yetishmovchiligi etiologiyasi, patogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolash standartlari va profilaktikasini;

– aorta va periferik tomirlar kasalliklari etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;

– neyrotsirkulyator distoniya etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxislash va davolashni;

– surunkali revmatik yurak kasalligi etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;

– mitral, aortal, uch tabaqali va o‘pka arteriyasi qopqog‘i nuqsonlari, ko‘p qopqoqli yurak nuqsonlari, kattalarda tug‘ma yurak nuqsonlarini tashxislash va davolash standartlarini;

– perikard kasalliklari etiopatogenezi, zamonaviy tasnifi, klinikasi, davolash va tashxislash standartlarini hamda profilaktikasini;

– birlamchi va ikkilamchi o‘pka gipertenzivasi etiologiyasi, rivojlanish mexanizmlarini;

- o‘pka-yuragi rivojlanishi bilan kechuvchi kasalliklar, o‘pka gipertenziyasi klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini;
- o‘pka arteriyasi tromboemoliyasini tashxislash va davolash standartlarini;
- infeksiyon endokardit etiologiyasi, patogenezini, zamonaviy tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash standartlarini hamda profilaktikasini;
- endokrin kasalliklarda (gipotalamo-gipofizar tizimi, qalqonsimon bez va buyrak usti bezi kasalliklari, semizlik, klimakterik sindrom) yurak qon-tomir tizimi holatini;
- qandli diabetda yurak qon -tomir tizimi holatini;
- hazm a‘zolari kasalliklarida (simptomatik gastroduodenal yaralar, nospetsifik yarali kolit, surunkali xoletsistit, o‘t-tosh kasalligi, vitamin yetishmovchiligida miokard shikastlanishida) yurak qon-tomir tizimi holatini;
- nafas a‘zolari kasalliklarida yurak qon-tomir tizimi holatini, yurak kaslliklari asosida gospital va kasalxonadan tashqari pnevmoniyalar rivojlanish xususiyatlari va klinikasini, infarkt–pnevmoniyaning rivojlanish xususiyatlari va tashxislashni, ko‘ks oralig‘i kasalliklari va jarayonlarni perikardga tarqalishini;
- buyrak kasalliklarida (glomerulonefropatiya, nefrotik sindrom, o‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi) yurak qon-tomir tizimi holatini, surunkali dializ fonida yurak faoliyatini korrektsiyalashni;
- homiladorlikda yurak qon-tomir tizimi holatini;
- qariyalarda yurak qon-tomir tizimi holatini;
- yurakning kam uchraydigan kasalliklarini (Lenegra kasalligi, yurak o‘smalari, Marfan kasalligi, yurak va tomirlar rivojlanishida kam uchraydigan nuqsonlar) ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- shifokorlar etikasi va tibbiyot denotologiyasiga amal qilish;
- yangi kelgan bemorni kasallik tarixini to‘ldirish, tekshiruv va davolash rejasini tuzish;
- davolash, tashxislash, tibbiy xujjatlarni olib borish, bemorlarni dinamikada kuzatish, klinik, yakuniy tashhis qo‘yish, kasalxonadan chiqish hujjatlarini to‘ldirish;
- yurak qon –tomir tizimi va boshqa ichki a‘zolar asbobiy tekshirishlar natijalarini tahlil qilish;
- yurak ritmining paraksizmal buzilishlarini davolash;
- o‘tkir koronar sindromda tez yordam tadbirlarini o‘tkazish;
- gipertonik krizlarini davolash;
- o‘tkir yurak yetishmovchiligi va shok holatlaridan chiqarish;
- yurak tashqi massajini o‘tkazish;
- kardiologik bemorlarga reabilitatsion tadbirlarni ishlab chiqish va o‘tkazish, tibbiy hujjatlarni yuritish ***malakalariga ega bo‘lishi kerak***.

Magistratura ixtisosligiga qo‘yiladigan muayyan talablar kadrlar buyurtmachilarining talablari va ushbu mutaxassislik bo‘yicha fan, texnika va

texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

## 2. Ma'ruza mashg'ulotlari.

Fan bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

## 3. Seminar mashg'ulotlari

### 3.1. KLINIK KARDIOLOGIYA FANI bo'yicha seminar mashg'ulotlari tematikasi

№	Seminar mavzusi	soat	Kredit
<b>Yurak ishemik kasalliklari</b>			
1.	Yurak ishemik kasalligi epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogenezigiga zamonaviy qarashlar. YuIK tavsifi.	7	1
	Stabil zo'riqish stenokardiyasining funksional sinflari, ularning klinik kechish xususiyatlari, diagnostikasi	6	
2.	Stabil zo'riqish stenokardiyani kiyosiy tashxisi. Miokardning nokoronarogen kasalliklari, me'da-ichak yuli kasalliklari, suyak-bo'g'im kasalliklari bilan, funksional buzilishlari bo'lgan bemorlardagi kardialgiyalar bilan qiyosiy tashxislash.	7	
	Stabil zo'rikish stenokardiyani medikamentoz davolash. Davolashda qo'llaniladigan samarasi isbotlangan dori vositalar, ularga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar	6	
3.	YuIK. Nostabil stenokardiya, klassifikatsiyasi, ularning klinikasi, qiyosiy tashxislash, davolash va profilaktikasi. YuIK bilan assotsirlangan klinik xolatlar davosi.	7	1
	YuIK. Stabil va nostabil stenokardiyalarni nomedikamentoz davolash, profilaktika chora tadbirlari	6	
4.	Nostabil stenokardiya davosi: $\beta$ - blokatorlar, AAFI, statinlar, antiagregantlar, nitratlar, sekin kaltsiy kanali blokatorlari. Ko'rsatmalar, qarshi ko'rsatmalar, samaradorligini baxolash me'zonlari.	7	
	Nostabil stenokardiyada antitrombotik davo. Ko'rsatmalar, qarshi ko'rsatmalar, samaradorligini baxolash me'zonlari.	6	
5.	Miokardning og'riqsiz ishemiyasi. Mikrovaskulyar stenokardiya. Klinika, diagnostika va zamonaviy davolash usullari.	7	1
	O'tkir koronar sindrom tasnifi (O'KS). O'KS patofiziologiyasi	6	
6.	O'tkir koronar sindromning klinik ko'rinishlari, fizikal tekshiruv. Miokard shikastlanishining bioximik markerlari, EKG. Xavfni baxolash.	7	

	O'tkir koronar sindrom ST segmentini ko'tarilishi bilan. Klinikasi va tashxislash. O'KSda taktika (OSSN va VNOK maslaxatlariga binoan). Jarroxlik amaliyoti (CHKV)	6	
7.	O'tkir koronar sindrom ST segmentini ko'tarilishisiz. Zamonaviy davolash tamoyillari. Trombolitik davo. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Trombolitik davoning asoratlari.	7	1
	YuIKning turli shakllarini tashxislash: Stabil va nostabil stenokardiyalarni yuqori texnologiyali tashxislash va davolash usullariga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Stsintigrafiya, koronaroangiografiya. Stabil va nostabil zo'riqish stenokardiyada koronar revaskulyarizatsiya	6	
8.	Miokard infarkti: etiologiyasi. Patogenezi. Klassifikatsiyasi. ST elevatsiyali va ST elevatsiyasiz MI. MI tasnifiga zamonaviy qarashlar.	7	1
	Miokard infarktida yurakning "remodelirlanish" tushunchasi	6	
9.	Miokard infarkti. Klinik variantlari, klinikasi, tashxisiy me'zonlari. Komorbid xolatlarda MI ni kechishi. Klinik turlari ni qiyosiy tashxislash	7	
	Atipik lokalizatsiyalangan MI, cho'zilgan kechuvi va retsidivlanuvchi, qayta, old va pastki MI. Miokard infarkni kiyosiy tashxislash	6	
10	O'ng qorincha miokard infarkti, klinikasi, tashxislash va davolash.	7	1
	Miokard infarktining laborator-asbobiy tashxislash. Miokard shikastlanishini va yalliglanish faolligini ko'rsatuvchi bioximik markerlarini aniqlash	6	
11	Miokard infarktining EKG-diagnostikasi. ExoKG, Koronarografiya, stsintigrafiya, rentgenografiya.	7	1
	MI ni o'tkir xolatlar bilan kiyosiy tashxislash (o'pka arteriyasi tromboemboliyasi, aortaning qavatlanuvchi anevrizmasi, spontan pnevmotoraks)	6	
12	Asoratlanmagan miokard infarktini klinikasi, tashxislash va davolash. og'riqsizlantirish, trombolitik davo, antitagrigantlar, $\beta$ - blokatorlar, APFI, nitratlar, oksigenoterapiya.	7	1
	Bemorni statsionarda faollashtirish va statsionardan chiqarilgandan keyingi olib borish taktikasi. Oqibati	6	
13	Miokard infarkti asoratlari. O'tkir chap yoki o'ng qorincha yetishmovchiligi, ritm va o'tkazuvchanlikni buzilishi, yurakning yorilishi.	7	1
	Miokard infarkti asoratlari. Chap qorincha anevrizmasi, perikardit, tromboembolik asoratlar, Dressler sindromi, ruxiy buzilishlar	6	
14	Shok holatlari. Kardiogen shok. SHok xolatlarini qiyosiy tashxisi.	7	1



	Kardiogen shokni zamonaviy davolash tamoyillari	6	
15	To‘satdan koronar o‘lim. Epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogenezi, xavf omillari. To‘satdan o‘lim profilaktikasi.	7	
	O‘pka-yurak reanimatsiyasi. Kardioverter-defibrillyator ICD. Miokard infarkti asoratlarini davolash	6	
16	YuIK. Miokard infarktni jarroxlik yo‘li bilan davolash. Koronar revaskulyarizatsiya usullari. Turli xil usullar bilan stentlash. Stent turlari.	7	1
	YuIK. Miokard infarktni jarroxlik yo‘li bilan davolash. Ko‘p qon tomirlarni stentlash. Nokoronar tomirlarni stentlash	6	
17	YuIK bilan ogrigan va MI o‘tkazgan bemorlarni poliklinikada sharoitida olib borish.	7	
	Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inida YuIK ni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasi, rehabilitatsiya	6	
	<b>Miokard kasalliklari</b>		
18	Miokard yallig‘lanishli kasalliklari. Miokardit. Miokarditlar – etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi, diagnostikasi, differentsial diagnostikasi.	7	1
	Miokarditlarni davolash, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi	6	
19	Miokardiodistrofiyalar etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi.	7	
	Miokardiodistrofiyalar - tashxislash, qiyosiy tashxislash, davolash, profilaktika	6	
20	Dilatatsion kardiomiopatiya– etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi.	7	1
	Dilatatsion kardiomiopatiyani tashxislash, qiyosiy tashxislash, davolash, profilaktika	6	
	<b>Kuzgi semestr Xammasi</b>	<b>260 soat</b>	<b>13kr edit</b>
21	Gipertrofik kardiomiopatiyalar – etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi.	4	1
	Gipertrofik kardiomiopatiyalar tashxislash, qiyosiy tashxislash, davolash, profilaktika	4	
22	Restriktiv kardiomiopatiya va miokardning restriktiv holatlari etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi. Tashxislash, qiyosiy tashxislash, davolash, profilaktika.	4	
	Miokardning restriktiv holatlari. Kam uchraydigan kardiomiopatiyalar. Periportal, Stress-indutsirlangan kardiomiopatiya (Tako-TSubo). Miokardning amiloidozda, gemoxromatozda sarkaidozda zararlanishi	4	
23	O‘ng qorincha kasalliklari (o‘ng qorincha aritmogen displaziyasi, o‘ng qorincha kardiomiopatiya).	4	
	Kardiomiopatiyalarni yuqori texnologiyali davolash usullari	4	



	<b>Yurak yetishmovchiligi</b>		
24	Yurak yetishmovchiligi rivojlanishiga zamonaviy qarashlar. Epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogenezi. SYuE. Tasnifi.	4	1
	Yurak yetishmovchiligi Klinikasi. Xavf omillar. Klinik xolatni baxolash shkalasi	4	
25	Yurak yetishmovchiligi asosiy klinik turlari. Sistolik va diastolik YuE ning tashxisiy me'zonlari.	4	
	Yurakning qon otib berish xajmining pasayishi, oraliq va saqlangan hollarda kechishi. SYuE tashxisini qo'yish algoritmi	4	
26	O'tkir chap korincha yetishmovchiligi- patogenezi, klinik xususiyatlari, tashxisi, differentsial tashxisi.	4	1
	O'tkir chap korincha yetishmovchiligida bemorlarni olib borish taktikasi, davosi	4	
27	O'tkir o'ng qorincha yetishmovchiligi - patogenezi, klinikasi, tashxislash, qiyosiy tashxislash.	4	
	O'tkir o'ng qorincha yetishmovchiligi - bemorlarni olib borish taktikasi, davosi	4	
28	SYuE bilan og'riqan bemorlarda surunkali buyrak kasalligi tashxislash, davolash tamoyillari.	4	1
	Yurak yetishmovchiligida kardorenal sindromi tushunchasi. Renal anemiya va boshqa klinik ko'rinishlarni korrektsiyasi	4	
29	SYuEni hepatomegaliya va shish- astitik sindrom bilan kechuvchi kasalliklar bilan qiyosiy tashxislash.	4	
	SYuE da laborator va asbobiy tashxislash (EKG, ko'krak qafasini rentgenologik tekshiruvi, ExoKG, izotop ventrikulografiya, miokard stsintigrafiyasi, tomografiya va b.)	4	
30	Yurak yetishmovchiligini zamonaviy davolash printsiplari. IAPF, ARA, $\beta$ - adrenoblokatorlar bilan davolashning zamonaviy tamoyillari.	4	1
	Yurak yetishmovchiligida Neprilizin ingibitori (ARNI) va f-kanallarni selektiv blokatoriga ko'rsatma va uni qo'llash tartibi	4	
31	Yurak yetishmovchiligini davolashda siydik xaydovchi dori vositalarni o'rni.	4	
	Mineralokortikoidlar retseptorlari bilan davolashning zamonaviy tamoyillari	4	
32	SYuE ni yurak glikozidlari va noglikozid inotrop vositalar bilan davolashning zamonaviy tamoyillari. SYuE da antiagrigant, antikoagulyant, antiaritmik vositalarni qo'llash tartibi.	4	
	SYuE davolashning zamonaviy tamoyillari. SYuE da refrakter shish sindromini davolash. Yuklama-stimulyatsion davolash	4	
33	Yurak yetishmovchiligini nomedikamentoz davolash, profilaktikasi va ambulator sharoitida olib borish.	4	1
	Yurak qon tomir asoratlari xavf omillarini nazorat qilish. Bemorlarni parvarishlashni tashkillashtirish. Psixologik	4	

	reabilitatsiya va fizik faollashtirish tartibi		
	<b>Aorta va periferik tomirlar kasalliklari</b>		
34	Aorta kasalliklari (yallig‘lanishli va yallig‘lanishsiz).	4	1
	Ko‘krak va qorin aortasi kasalliklari	4	
35	Aorta klapanlarning degenerativ shikastlanishlari.	4	
	Periferik arteriyalar kasalliklari. Tashxislash va davolash	4	
36	Venalar kasalliklari.	4	
	Periferik tomirlar o‘tkir okklyuziyasi	4	
37	Semizlik. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, xavf omillar, tashxislash va davolash. Asoratlari va ularni oldini olish.	4	
	Metabolik sindrom. Glyukozaga tolerantlikni buzilishi, giperurikemiya	4	
38	Metabolik sindromda yurak-qon tomir kasalliklari kechishining xususiyatlari.	4	
	Yurak qon -tomir kasalligi turli xavflari bor bemorlarni ambulatoriya sharoitida kuzatish, yuklamali sinamalarni, XMEKG va SMAD o‘tkazish	4	
39	Vegetativ-qon tomir kasalliklari. Vegetativ krizlar, tasnifi.	4	1
	Vegetativ-qon tomir kasalliklarini davolash	4	
40	Arterial gipotenziya. Arterial gipotenzivalar fiziologiyasi. Patologik arterial gipotenzivalar. Kollaps. Xushdan ketish. Etiopatogenezi, tashxislash va davolash	4	
	Arterial gipotenziya, Kollaps, Xushdan ketishda birinchi yordam. tashxislash va davolash	4	
	<b>Yakuniy nazorat</b>		
	<b>Baxorgi semestr</b>	<b>160 soat</b>	<b>8kre dit</b>
	<b>2 kurs bo‘yicha</b>	<b>420 soat</b>	<b>21kr edit</b>

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem. guruhga alohida o‘tiladi. Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o‘tiladi. Ko‘rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Seminar mashg‘ulotlari tasdiqlangan reja asosida o‘tkaziladi va magistralar bilimni nazorat qilishning reyting tizimi asosida baholanadi.

### 3.2. SEMINAR MASHG‘ULOTLARI REJASI

**26-mavzu. “Yurak ishemik kasalligi epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogeneziga zamonaviy qarashlar. YuIK tavsifi. Stabil zo‘riqish stenokardiyasining funksional sinflari, ularning klinik kechish xususiyatlari, diagnostikasi”.**

YuIK ta’rifi va epidemiologiyasi, tasnifi, YuIK rivojlanishida aterosklerozning ahamiyati. Tomirlar tonusining endotelial regulyatsiyasining buzilishi, YuIK

patogenezida NOning o'ri. Koronar arteriyalari spazmining, qon ivish va qarshi ivish tizimining ahamiyati.

"Uykudagi" va "karaxtlangan" miokard: tushunchasi, kelib chiqish mexanizmlari, tashxislash usullari, davolashga zamonaviy yondoshuvlar. Miokardning uzlukli ishemiyasi (prekonditsionirlanish): tushunchasi, patofiziologiyasi, amaliyotdagi ahamiyati. Stenokardiyaning tasnifi. Stabil zo'riqish stenokardiyasi, funksional sinflarga bo'linishi, ularning klinik kechish xususiyatlari; stenokardiyaning klinikasi, tashxislash; Miokardning og'riksiz ishemiyasi ta'rifi; Miokardning og'riqsiz ishemiyasi diagnostikasi.

**27-mavzu. "Stabil zo'riqish stenokardiyaning kiyosiy tashxisi. Miokardning nokoronarogen kasalliklari, me'da-ichak yuli kasalliklari, suyak-bo'g'im kasalliklari bilan, funksional buzilishlari bo'lgan bemorlardagi kardialgiyalar bilan qiyosiy tashxislash. Stabil zo'rikish stenokardiyaning medikamentoz davolash. Davolashda qo'llaniladigan samarasi isbotlangan dori vositalar, ularga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar".**

Stabil zo'riqish stenokardiyaning funksional sinflaridan kelib chiqqan xolda kiyosiy tashxisi. Stenokardiyaning xar xil funksional sinflarida EKGda kuzatiladigan o'zgarishlar; Miokardning nokoronarogen kasalliklari (miokarditlar, kardiomiopatiyalar, miokardiodistrofiyalar va boshqa), me'da-ichak yuli kasalliklari, suyak-bo'g'im kasalliklari bilan, funksional buzilishlari bo'lgan bemorlardagi kardialgiyalar bilan qiyosiy tashxislash. YuIK da kuzatiladigan EKGdagi o'zgarishlarni ko'krak qafasida og'riqlar bilan kechadigan (osteoxondroz, NTSD, suyak-bo'g'im, nafas olish va oshqozon ichak tizimlari) va yurak qon tomir tizimining boshqa kasalliklari bilan qiyosiy tashxislash. Stabil zo'rikish stenokardiya medikamentoz davolash. Antianginal preparatlar tasnifi. Stenokardiyaning davolashda qo'llaniladigan preparatlarning tasnifi, ta'sir mexanizmi, qo'llashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar, nojo'ya ta'sirlari, tolerantlik rivojlanish mexanizmlari va uni oldini olish. AAF-ingibitorlari, metabolik ta'sirga ega preparatlar: preduktal, mildronat va boshqa RA ingibitorlari. YuIK ga olib keluvchi xavf omillarni bartaraf etish, profillaktika va reabilitatsiya tadbirlari.

**28-mavzu. "YuIK. Nostabil stenokardiya, klassifikatsiyasi, ularning klinikasi, qiyosiy tashxislash, davolash va profillaktikasi. YuIK bilan assotsirlangan klinik xolatlar davosi. Stabil va nostabil stenokardiyaning nomedikamentoz davolash, profillaktika chora tadbirlari".**

Nostabil stenokardiya, klassifikatsiyasi. Nostabil stenokardiyaning Braunwald bo'yicha tasnifi. YuIK bilan assotsirlangan klinik xolatlarni tashxislash va davolash tamoyillari. Birinchi bor paydo bo'lgan stenokardiya, avj olib boruvchi stenokardiya, vazospastik (Printsmetal) stenokardiya, miokard infarktidan keyin erta paydo bo'lgan stenokardiya va operatsiyadan keyin erta paydo bo'lgan stenokardiyaning klinikasi, tashxisiy me'zonlari, nomedikamentoz davolash va profillaktika chora tadbirlari.

**29-mavzu. "Nostabil stenokardiya davosi:  $\beta$  - blokatorlar, AAFI, statinlar, antiagrigantlar, nitratlar, sekin kaltsiy kanali blokatorlari. Nostabil**

**stenokardiyada antitrombotik davo. Ko'rsatmalar, qarshi ko'rsatmalar, samaradorligini baxolash me'zonlari va prognozi".**

Nostabil stenokardiyani davolashda  $\beta$  - blokatorlar, AAFI, statinlar, antiagrigantlar, nitratlar, sekin kaltsiy kanali blokatorlarini tasnifi, ta'sir mexanizmi, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni inobatga olgan xolda qo'llash tartibi. Nostabil stenokardiyada antitrombotik davo. Ko'rsatmalar, qarshi ko'rsatmalar, samaradorligini baxolash me'zonlari va prognozi. Antianginal preparatlarni, antiagregantlar va antikoagulyantlarni tavsiya qilish tartibi.

**30-mavzu. "Miokardning og'riqsiz ishemiyasi. Mikrovaskulyar stenokardiya. Klinika, diagnostika va zamonaviy davolash usullari. O'tkir koronar sindrom tasnifi (O'KS). O'KS patofiziologiyasi".**

Miokardning og'riqsiz ishemiyasi va mikrovaskulyar stenokardiya klinik me'zonlari, tashxislash va davolash. O'KS ta'rifi, patofiziologiyasi; tashxislash: klinik ko'rinishlari; fizikal tekshiruvlar, EKG belgilari. Miokard shikastlanishining bioximik markerlari. Xavfni baholash, xavfni baholashga tavsiyalar. Antiishemik preparatlar: betta blokatorlar; nitratlar; kaltsiy antagonistlari. Antitrombin preparatlari. Antitrombotsitar agentlar, fibrinolitik davo. O'tkir koronar sindromi ST segmentining noturg'un va turg'un ko'tarilishi bilan kechgan bemorlarni davolash taktikasi. Ta'rifi, tashxislash, klinik ko'rinishlari, fizikal tekshiruvlar, EKG dagi o'zgarishlar. Miokard shikastlanishining bioximik markerlari; Xavfni baholash, xavfni baholashga tavsiyalar. Antiishemik preparatlar: Antitrombin preparatlari: Antitrombotsitar agentlar: fibrinolitik davo.

**31-mavzu. "O'tkir koronar sindromning klinik ko'rinishlari, fizikal tekshiruv. Miokard shikastlanishining bioximik markerlari, EKG. Xavfni baxolash. O'tkir koronar sindrom ST segmentini ko'tarilishi bilan. Klinikasi va tashxislash. O'KSda taktika (OSSN va VNOK maslaxatlariga binoan). Jarroxlik amaliyoti (CHKV)".**

O'KS klinik ko'rinishlari, tashxisiy me'zonlari, fizikal tekshiruv. Miokard shikastlanishining bioximik markerlari, EKG belgilari. Xavfni baxolash, xavfni baxolashga tavsiyalar, olingan natijalar interpretatsiyasi. O'tkir koronar sindrom ST segmentini ko'tarilishi bilan. Klinikasi va tashxislash me'zonlari. O'KSda OSSN va VNOK maslaxatlariga binoan taktika. Jarroxlik amaliyoti (CHKV) o'tkazish tartibi. CHKV o'tkazilgan bemorlarni olib borish tartibi.

**32-mavzu. "O'tkir koronar sindrom ST segmentini ko'tarilishisiz. Zamonaviy davolash tamoyillari. Trombolitik davo. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Trombolitik davoning asoratlari. YuIKning turli shakllarini tashxislash: Stabil va nostabil stenokardiyalarni yuqori texnologiyali tashxislash va davolash usullariga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Stsintigrafiya, koronaroangiografiya. Stabil va nostabil zo'riqish stenokardiyada koronar revaskulyarizatsiya".**

O'tkir koronar sindrom ST segmentini ko'tarilishisiz, klinikasi, tashxislash me'zonlari, zamonaviy davolash tamoyillari. Trombolitik davo. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Trombolitik terapiya asoratlari. YuIK. Stabil stenokardiyaning turli funksional sinfarida va nostabil stenokardiyalarning turli shakllarini tashxislash:

Stabil va nostabil stenokardiyalarni yuqori texnologiyali tashxislash va davolash usullariga ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Xirurgik davolashga ko'rsatmalar. Trombolitik davoga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Trombolitik terapiya asoratlari va uni oldini olish va bartaraf etish tamoyilari.

Stsintigrafiya, koronarografiya. Stabil va nostabil zo'rikish stenokardiyalarda koronar revaskulyarizatsiya. Aorta ichi ballonli kontrpulsatsiya: ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar, o'tkazish uslubi, asoratlari. Ballonli koronar angioplastika: ko'rsatmalar, o'tkazish uslubi, prognozi. Boshqa endovaskulyar davolash usullari: atektomiya, lazerli angioplastika; stent qo'yish; aorto-koronar shuntlash: ko'rsatmalar, o'tkazish uslubi, prognozi.

**33-mavzu. "Miokard infarkti: etiologiyasi. Patogenezi. Klassifikatsiyasi. ST elevatsiyali va ST elevatsiyasiz MI. MI tasnifiga zamonaviy qarashlar. Miokard infarktida yurakning "remodelirlanish" tushunchasi".**

Miokard infarkti epidemiologiyasi, etiologiya va patogenezi; MI patomorfologiyasi va patofiziologiyasi; IM rivojlanishiga olib keluvchi asosiy va qo'shimcha xavf omillar. MI tasnifi va unga zamonaviy qarashlar; MI ning bosqichlari. Mida yurakning "remodelirlanish" tushunchasi va turlari xamda unga ta'sir etuvchi omillar. CHap qorinchani MI dan keyin remodelirlanishini erta aniqlash va oldini olish.

**34-mavzu. "Miokard infarkti. Klinik variantlari, klinikasi, tashxisiy me'zonlari. Komorbid xolatlarda MI ni kechishi. Klinik turlari ni qiyosiy tashxislash. Atipik lokalizatsiyalangan MI, cho'zilgan kechuvi va retsdivlanuvchi, qayta, old va pastki MI. Miokard infarkni qiyosiy tashxislash".**

MI anginoz, abdominal, tserebral, astmatik, aritmik shakllari; MI ni og'riksiz va periferik shakllari, klinik variantlari. Atipik lokalizatsiyalangan MI: o'ng qorincha miokard infarkti, bo'lmachalarning yakkalangan miokard infarkti, papillyar mushaklar infarkti; MIning cho'zilgan kechishi; Retsdivlanuvchi MI; qaytalangan MI; Oldingi va pastki devor MI. Ularning klinik me'zonlari, ularni qiyosiy tashxislash.

**35-mavzu. "O'ng qorincha miokard infarkti, klinikasi, tashxislash va davolash. Miokard infarktining laborator-asbobiy tashxislash. Miokard shikastlanishini va yalliglanish faolligini ko'rsatuvchi bioximik markerlarini aniqlash".**

O'ng qorincha miokard infarkti etiopatogenezi, klinikasi, tashxislash va davolash. CHap qorincha MI dan farqi. Miokard infarktining laborator-asbobiy tashxislash. Miokard shikastlanishining bioximik markerlarini aniqlash: mioglobulin va MV KFK, yurak troponinlari, AST, LDG va uning izofermentlari; yalliglanish faolligini ko'rsatuvchi markerlar: fibrinogen, S-reaktiv oqsil. Dinamikada laborator ma'lumotlarning xos o'zgarishlari: qon umumiy taxlili, koagulogramma, qondagi qand miqdori, xolesterin va lipoproteidlar. Rezartson nekrotik sindrom. Miokard shikastlanishini va yalliglanish faolligini ko'rsatuvchi bioximik markerlarini aniqlash. MI davrlariga ko'ra rezartsiyon nekrotik belgilarni o'zgarishi. MI ni tashxislashda tropinni axamiyati.

**36-mavzu. “Miokard infarktining EKG-diaagnostikasi. ExoKG, Koronarografiya, stsintigrafiya, rentgenografiya. MI ni o‘tkir xolatlar bilan kiyosiy tashxislash (o‘pka arteriyasi tromboemboliyasi, aortaning qavatlanuvchi anevrizmasi, spontan pnevmotoraks)”.**

Q tishli MI da EKG o‘zgarishlari: shikastlanish bosqichi: o‘ta o‘tkir, o‘tkir, o‘tkir osti va chandiqlanish bosqichlari; MI ning topik tashxisi.

Q tishsiz MI ni EKG-tashxisi; MI bo‘lmacha-qorincha tutami oyoqchalari blokadasida bo‘lgan bemorlarda rivojlanganda EKG kuzatiladigan o‘zgarishlar; MI ni tashxislashda qo‘llaniladigan qo‘shimcha EKG tarmoqlari. MI ni klinik davrlariga mos ravishda EKG o‘zgarishlar. MI ning ExoKG belgilari va ularni MI ni klinik davriga bog‘liq ravishda o‘zgarishi. MI tashxislashda koronarografiya, stsintigrafiya, bir fotonli emission kompyuter tomografiya, magnit-rezonans tomografiya, rentgenografiyaning ahamiyati. Koronar angiografiya. Yurak kateterizatsiyasi. MI ni inson xayotiga xavf soluvchi o‘tkir xolatlar (o‘pka arteriyasi tromboemboliyasi, aortaning qavatlanuvchi anevrizmasi, spontan pnevmotoraks) bilan kiyosiy tashxislash. Miokardning nokoronarogen kasalliklari, me‘da-ichak yo‘li kasalliklari bilan, suyak-bo‘g‘im kasalliklari bilan, funksional buzilishlari bo‘lgan bemorlardagi kardialgiyalar bilan kiyosiy tashxislash.

**37-mavzu. “Asoratlanmagan miokard infarktini klinikasi, tashxislash va davolash. og‘riqsizlantirish, trombolitik davo, antitagrigantlar,  $\beta$  - blokatorlar, APFI, nitratlar, oksigenoterapiya. Bemorni statsionarda faollashtirish va statsionardan chiqarilgandan keyingi olib borish taktikasi. Oqibati.”.**

Asoratlanmagan miokard infarktini klinikasi, tashxislash va davolash. Miokard infarkti bilan bemorlarni shifoxonagacha bo‘lgan bosqichda olib borish taktikasi va transportirovkasi; ITBga MI bilan bemor tushganda qilinadigan ishlar algoritmi; Og‘riqni qoldirish; Miokard infarktida trombolitiklarni qo‘llash: ta’sir mexanizmi, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar, nojo‘ya ta’sirlari, yuborish sxemasi. Miokard infarktida antikoagulyantlarni, nitratlarni, beta-blokatorlarni, kaltsiy antagonistlarini, AAFI qo‘llash: ta’sir mexanizmi, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar, yuborish sxemasi. Bemorni statsionarda faollashtirish va statsionardan chiqarilgandan keyingi olib borish taktikasi; Dispanserizatsiyasi; Prognozi.

**38-mavzu. “Miokard infarkti asoratlari. O‘tkir chap yoki o‘ng qorincha yetishmovchiligi, ritm va o‘tkazuvchanlikni buzilishi, yurakning yorilishi. CHap qorincha anevrizmasi, perikardit, tromboembolik asoratlar, Dressler sindromi, ruxiy buzilishlar”.**

Miokard infarkti asoratlari tasnifi; Ritm va o‘tkazuvchanlik buzilishlari; MI da yurak yetishmovchiligi: o‘tkir chap qorincha yetishmovchiligi, o‘tkir o‘ng qorincha yetishmovchiligi, o‘tkir total yurak yetishmovchiligi. Yurak yorilishi: tashqi; qorinchalararo to‘sikning yorilishi; papilyar mushaklarning uzilishi. Yurak anevrizmasi: o‘tkir va surunkali. Tromboemboliyalar. Perikardit; Tromboendokardit. Infarktdan keyingi erta paydo bo‘lgan stenokardiya; Dressler sindromi. Ko‘krak qafasi old devori sindromi. Yelka sindromi; Me‘da-ichak yo‘li stazi bilan kechuvchi asorati; Ruxiy buzilishlar; Siydik ajralishini buzilishi.

**39-mavzu. “Shok holatlari. Kardiogen shok. Shok xolatlarini qiyosiy tashxisi. Kardiogen shokni zamonaviy davolash tamoyillari”.**

Kardiogen shok. SHok holatlarini qiyosiy tashxislash. SHok holatlarining ta’rifi va tasnifi. Etiologiyasi va patofiziologiyasi. Kardiogen shok: tashxisiy me’zonlari, klinik manzarasi. Boshqa turdagi shoklarning klinik manzarasi: gipovolemik, obstruktiv, qayta taqsimlanish shoki. Kardiogen shok. SHok holatlarini qiyosiy tashxislash. Davo taktikasi. Umumiy shokka qarshi chora-tadbirlar. Turli tipdagi shoklarda davolash taktikasi. SHokning asoratlari.

**40-mavzu. “To’satdan koronar o‘lim. Epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogenezi, xavf omillari. To’satdan o‘lim profilaktikasi. O‘pka-yurak reanimatsiyasi. Kardioverter-defibrillyator ICD. Miokard infarkti asoratlarini davolash”.**

To’satdan koronar o‘lim. Epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogenezi, xavf omillari. To’satdan o‘lim profilaktikasi. Kardioverter-defibrillyator ICD. O‘tkir yurak yetishmovchiligida (o‘tkir chap qorincha, o‘ng qorincha va total) O‘pka-yurak reanimatsiyasi. Umumqabul qilingan usullari: nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini tiklash, nafasni tiklash, qon aylanishini tiklash. Asoratlari. YuO‘Rning alternativ usullari: sun’iy qon aylanishi, yurakni bevosita massaji. Maxsus reanimatsion tadbirlar: kardioversiya/defibrillyatsiya, medikamentoz davolash. Pul’ssiz qorincha taxikardiyasi va fibrillyatsiyasi: defibrillyatsiya medikamentoz davo. Elektromexanik dissotsiatsiya: vositalari va usullari, davo taktikasi. Asistoliya: sabablari, davo taktikasi. Bradikardiyada yurak to‘xtab qolish xavfi: davo taktikasi. Taxikardiyada qon aylanishi to‘xtash xavfi: tashxislash, davo taktikasi.

MI ni erta va kechki asoratlarini davolash. O‘tkir chap qorincha yetishmovchiligi, o‘tkir o‘ng qorincha yetishmovchiligi, o‘tkir total yurak yetishmovchiligi. Yurak yorilishi: tashqi; qorinchalararo to‘sikning yorilishi; papilyar mushaklarning uzilishi. Yurak anevrizmasi: o‘tkir va surunkali. Tromboemboliyalar.Perikardit; Tromboendokardit. Infarktdan keyingi erta paydo bo‘lgan stenokardiya; Dressler sindromi va boshqa asoratlarni davolash.

**41-mavzu. “YuIK. Miokard infarktni jarroxlik yo‘li bilan davolash. Koronar revaskulyarizatsiya usullari. Turli xil usullar bilan stentlash. Stent turlari. Ko‘p qon tomirlarni stentlash. Nokoronar tomirlarni stentlash”.**

Miokard infarktni jarroxlik yo‘li bilan davolash usullari va ularga ko‘rsatmalar. Translyuminal ballonli angioplastika, aortakoronar shuntlash. Koronar endarterektomiya. Turli xil usullar bilan stentlash. Stent turlari. Ko‘p kon tomir stentlash. Nokoronar tomirlarni stentlash. Jarroxlik yo‘li bilan davolash vaqtida va undan keyingi davrda kuzatilishi mumkin bo‘lgan asoratlar. Restenoz sabablari va uni oldini olish.

**42-mavzu. “YuIK bilan ogrigan va MI o‘tkazgan bemorlarni poliklinikada sharoitida olib borish. Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inida YuIK ni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasi, rehabilitatsiya.”.**

YuIK bilan ogrigan va MI o‘tkazgan bemorlarni poliklinikada sharoitida olib borish. Poliklinika sharoitida bemorlar uchun yuritiladigan xujjatlar. Bemorlar va ularning oila a’zolari bilan sog‘lom xayot tarzi va profillaktika chora tadbirlarini



olib borish. YuIK maktablari tashkil etish va ularda ish olib borish. Sogʻliqni saqlashning birlamchi boʻgʻinida YuIK ni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasi, rehabilitatsiya”.

**43-mavzu. “Miokard yalligʻlanishli kasalliklari. Miokardit. Miokarditlar – etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi, diagnostikasi, differentsial diagnostikasi. Miokarditlarni davolash, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi”.**

Miokarditlar: infeksiyon va infeksiyon-toksik, immunologik, toksiko- allergik. Miokarditlar patogenezi: immun buzilishlari, morfologik mezonlari, elektrolit va biokimik buzilishlar, kininlar ahamiyati. Miokarditlar tasnifi. Klinik variantlari. Tashxislash. Miokardit. Yurak mushagi kasalliklari bilan qiyosiy tashxislash. Davolash: asoratlanmagan miokardit, qon aylanishi yetishmovchiligida davolashning oʻziga xosligi, ritm va oʻtkazuvchanlik buzilishlarida davolashning oʻziga xosligi. Profilaktikasi: birlamchi; ikkilamchi.

**44-mavzu. “Miokardiodistrofiyalar etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi. Miokardiodistrofiyalar - tashxislash, qiyosiy tashxislash, davolash, profilaktika”.**

Ichki aʼzolar kasalliklarida miokard kasalliklari: Etiologiyasi: gistogematik barʼer roli, kaliyli va katexolaminli distrofiyalar, kaltsiy almashinuvi buzilishi, ekstrakardial sabablar: qon kasalliklari, endokrin bezlari va moddalar almashinuvi kasalliklari, avitaminozlar, ionlanuvchi radiatsiya, vibratsiya, endogen va ekzogen intoksikatsiyalar. Miokardiodistrofiyalar klinikasi va tashxislash: oʻtkir va surunkali distrofiyalar klinikasi, EKG-diagnostikasi, farmakologik sinamalar, exokardiografik meʼzonlar, radionuklid tashxis usuli, morfologik mezonlar. Miokarditlar, YuIK, NTSD bilan qiyosiy tashxislash. Davolash va profillaktika.

**45-mavzu. “Dilatatsion kardiomiopatiya– etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi. Dilatatsion kardiomiopatiyani tashxislash, qiyosiy tashxislash, davolash, profilaktika”.**

